

KULOLCHILIKKA DOIR NARSA-BUYUMLAR NOMINI ANGLATUVCHI TERMINLAR TADQIQI

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Zilolamsmstqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasb-hunar terminologiyasi, kasb-hunar sohasidagi ilmiy izlanishlar yoritilgan. Rishton kuolchilik terminlari o'rganish oyekti sifatida tanlab olingan. Mazkur terminlar tematik tasnif doirasida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kulolchilik terminlari, tematik tasnif, paradigma, maishiy-xo'jalik buyumlari, badiiy dekorativ buyumlari.

Kulolchilik terminlarining katta qismi sopol buyumlarning nomidan iboratdir. Ular maishiy-xo'jalik buyumlari va badiiy dekorativ buyumlari kabi ichki bo'linishga ega.

1. Maishiy-xo'jalik buyumlari: Mazkur buyumlar kishilarning biror maqsadi uchun mo'ljallangan bo'lib, ozuqa saqlash, ovqat iste'mol qilish taom tayyorlashda keng foydalilaniladi. Xalqimiz mazkur buyumlarni umumiyl nom ostida idish, idish -tovoq juft oti ostida nomlaydi. Idish leksikasining etimologiyasi xususida "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da quyidagi ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. "Narsa solib qo'yish buyumi. Tuxum soladigan idishni olmabman. Bu ot qadimgi turkiy tildagi yig'-ma'nosini anglatgan idi fe'lidan (DS, 203)-sh qo'shimchasi bilan yasalgan. (PDP, 379; Devon I, 92) Idi +sh shunga ko'ra asli narsani yig'ishtirib solish buyumi ma'nosini bildiradi." (O'TEL 108) mazkur buyumlarning mazmuniy guruhlari salmoqlidir: maishiy-xo'jalik buyumlari sirasiga kirivchi terminlarning 77 tasini aniqladik. Ular: choynak, piyola, ko'kanak, chapiya, suv ko'za, balbala, charxi tovoq, tovog'i langari, naqshin tovoq, la'li tovoq, miyona tovoq, chuqur tovoq, ma'raka tovoq, langari tovoq, to'y tovoq, nim tovoq, harchagi tovoq, bosh tovoq, lagan, katta lagan, o'rta lagan, kichik lagan, to'y lagan, ma'raka lagan, qatiq kosa, shokosa, kosacha, nimkosa, don kosa, suv kosa, sharbat kosa, nisholda kosa, shinni kosa, sopol kosa, do'g'obi kosa, qaymoq kosa, labigardon kosa, dukki kosa, yumaloq, naqshin kosa, tarkash, qulqulcha, qatiq ko'za, obdasta, suv ko'za, yog' ko'za, xum, xurmacha, xumcha, chapiya, ho'qacha, tuvak, gultuvak, oftoba, moy ko'za, yog' ko'za, katta ko'za, ponsari ko'zacha, chuvati ko'za, suzma ko'za, qo'kanak, non xurma, mashrafa, qo'shqulqocha, mo'ndi, bodiya, chanoq bodiya,

mashadi bodiya, xamir tog'ora, miyona tog'ora, nim tog'ora, kir tog'ora; tog'oracha, damgir tog'oracha, tulum tog'ora, nim tog'ora.¹⁰⁰

Bu buyumlar qanday mahsulot solishga mo'ljallangani, shaklidagi farqlar va boshqa belgilari asosida alohida nomlangani kuzatiladi. Shuning uchun bu mazmuniy guruhga kiruvchi birliklarni yana kichik guruhlarga ajratib o'rganishni ma'qul topdik.

1) Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan ko'za nomlari:

Qo'shqulqcha (Toshkent) – Ikki tomonida qulog'i bo'lgan kuvachasimon sopol idish, xurmacha. Ip o'tkazish uchun ikki tomonida qulog'i bor, ichi chuqrur, sirsiz sopol idish bo'lib, bunga sigir sog'iladi, qatiq uyutiladi, dalaga issiq ovqat quyib olib borish uchun ishlatiladigan idish.

Xurmacha (Toshkent) – G'ildiragi (poshnasi) novcha, ichi toypoq, labi qayrilgan, to'rt tomonida qulog'i bor, ichi-toshi sirli, tashqarisi guldor sopol idish; Qatiq ivitish, sut solib qo'yish uchun ishlatiladigan sopol idish; qo'shqulq bunga sigir sog'iladi, qatiq ivitiladi; ba'zi joylarda «*chapiya*» deb ham yuritiladi. *Ko'kanak* (Rishton) – Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan idish. *Chapiya* (Rishton) – Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan ko'za nomi : Suv ko'za (Rishton) – Suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo'g'zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish.

Balbala (Rishton) – Suv uchun foydalaniladigan ko'za nom

2) Tovoq va lagan turlari nomlari: *charxi tovoq* (Rishton), *tovog'i langari* (Samarqand), *naqshin tovoq* (G'ijduvon), *la'li tovoq* (Samarqand), *chuqrur tovoq* (Rishton), *miyona tovoq* (G'ijduvon), *miyona tovoq*, *chuqrur tovoq*, *ma'raka tovoq*, *langari tovoq*, *to'y tovoq*, *nim tovoq*, *harchagi tovoq*, *bosh tovoq*, *la'li tovoq*, *lagan*, *katta lagan*, *o'rtalagani*, *kichik lagan*, *to'y lagan*, *ma'raka lagan* kabi.

3) Kosa turlari nomlari: *qatiq kosa*(Rishton), *don kosa*(Rishton), *suv kosa*(Rishton), *sharbat kosa*(Rishton), *nisholda kosa*(Rishton), *shinni kosa*(Rishton), *sopol kosa* ularning ayrimlarining izohiga to'xtalib o'tamiz.

Do'g'obi kosa (Samarqand)- kattaligi kosa bilan lagancha o'rtalig'idagi sopol idish.

Qaymoq kosa (Rishton) – piyoladan kattaroq kosadan lichikroq hajmdagi kosa nomi. *Qaymoq* solish uchun mo'ljallanganligi uchun aynana shu nom bilan ataladi.

Labigardon kosa (G'ijduvon) – labi tashqariga qayrilib chiqqan kosa nomi. *Dukki kosa* (G'ijduvon)- qorin qismi do'ng, tashqariga qavarib

¹⁰⁰ Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- бет

chiqqan kosa nomi Yumaloq (Rishton)- 1–2 kishi suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish hisobilanadi.

Naqshin kosa (Rishton)- naqshli kosa

Tarkash (Rishton) 1–2 kishi suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish, lagan; "yumaloqcha" deb ham yuritiladi.

Kosa (Rishton)- suyuq ovqat (sho'rva, suyuq ovqat, shirchoy kabilar) quyib ichish uchun yasalgan, bir kishilik, ichi chuqur, devori novcha sopol yoki chinni idish. Bu idishning kulollar tomonidan yasalgani "sopol kosa", chinnipazlar tomonidan yasalgani "chinni kosa" deb ataladi.

Nimkosa- suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish, lagan; "yumaloqcha" deb ham yuritiladi.

Shokosa (Rishton)- katta kosa. Bu kosaning poshnasi baland ko'tarilgan bo'ladi.

Miyona kosa (Rishton)- o'rtacha kattalikdagi sopol kosa.

4) Ko'za, xum, tuvak va boshqa buyum nomlari: qulqulcha (Samarqand), qatiq ko'za (Samarqand), obdasta (Qarshi), suv ko'za, yog' ko'za, xum, xumcha, chapiya, ho'qacha, tuvak, gultuvak, oftoba, piyola, ayoq, nog'ora, moy ko'za, yog' ko'za, chorog'i, chortagi, katta ko'za, qulqulcha, quloba, quvocha, ponsari ko'zacha, chuvati ko'za, suzma ko'za, xurma, xurmacha, katta xurma, qo'kanak, non xurma, mashrafa, qo'shqulqcha, mo'ndi kabilar.

5) Bodiya nomlari: bodiya (tagi dumaloq va baland qirg'og'i tik chuqur sopol idish – lagan), chanoq bodiya, mashadi bodiya.

6) Tog'ora nomlari. Xamir qilinadigan tog'ora nomlari: xamir tog'ora, uchtalik tog'ora (G'ijduvon), miyona tog'ora (G'ijduvon), nim tog'ora (Samarqand), tog'oracha (Kattaqo'rg'on); kir yuvishda ishlatiladigan tog'ora: kir tog'ora; qopqoq yoki palov damlashda ishlatiladigan tog'ora: tog'oracha, damgir tog'oracha, tulum tog'ora, nim tog'ora.¹⁰¹ Mazkur birliklarning ayrimlarining izohiga to'xtalib o'tamiz:

Balbala –may (ichimlik) quyiladigan idish, qadah.

Mo'ndi - sopol ko'za turi: og'zi tor, qorni keng shaklda, dastasiz bo'ladi (suyuqlik solib qo'yishda foydalaniadi).

2. Badiiy dekorativ buyumlari: insonlarga estetik zavq berish, binolarni bezash, esdalik sovg'alar, hadyalar uchun mo'ljallangan mahsulotlar

¹⁰¹ Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- 17-бет

sanaladi. Dekorativ – lotincha decor, dekororis so‘zlaridan olingan bolib, - go‘zallik, nafosat degan ma’nolarni anglatadi. Demak, ziynat uchun xizmat qiladigan, ko‘rkamlik, go‘zallik baxsh etadigan har qanday buyum dekorativ buyum sanaladi. Badiiy dekorativ buyumlar esa, voqelikni nafis san’at vositasi yordamida obrazlar orqali ifoda etuvchi va tasvirlovchi buyumlardir. Jumladan, asosan hadya uchun sopoldan tayyorlangan haykalchalar misolida ko‘radigan bo‘lsak, ularda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan milliy libosidan tortib, yuz ifodasida, ko‘z qarashlarida ham badiiy obraz ifodalangan. Kulolchilik sohasidagi badiiy dekorativ buyumlar mazmuniy guruhga sopol buyumlardagi miniyaturalar, sopol buyumlardagi kartinalar, sopol buyumlardagi xattotlik, sopol o‘yinchoqlar: xushtak, qo‘chqorchcha, o‘rdak kabilar kiradi.

Sopol o‘yinchoq nomlari: *hushtak*- havoni puflab chiqarish yo‘li bilan chalinadigan asbob, moslama. Sopol hushtak. Miltisioner hushtagi. Hushtak turli hududlarda turlicha nom bilan ataladi. Jumladan, xushpalak (G‘ijduvon va Rishton), churchurak (Shahrisabz), xushtak (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Toshkent), shivalak (Xorazm) kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI;

1. Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- бет
2. Булатов С. Ўзбек ҳалқ амалий безак санъати.- Тошкент. “Мехнат” 1991, 290-бет
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. -382 б.
4. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. - Ташкент: Фан, 1996. -46